

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10
RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SARIMSOKOV XURSHID ABDIMALIKOVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SPORT SHARHLARI
LEKSIKASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)

Sarimsokov Xurshid Abdimalikovich

Ingliz va o‘zbek tillarida sport sharhlari leksikasining lingvistik
xususiyatlari..... 3

Саримсоков Хуршид Абдималикович

Лингвистические особенности лексики спортивных комментариев в
английском и узбекском языках..... 29

Sarimsokov Khurshid Abdimalikovich

Linguistic features of the lexicon of sports commentaries in the English and
Uzbek languages..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 61

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10
RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SARIMSOKOV XURSHID ABDIMALIKOVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SPORT SHARHLARI
LEKSIKASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Fil587 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Siddikova Iroda Abduzuxurovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarov Shahriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Samigova Xushnuda Batirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Muxamedova Saodat Xudoyberdiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "13" dekabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Farobiy ko'chasi, 400-uy. Tel.: (+99871) 240-08-62; (+99871)227-10-59; faks: (+99871)246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (311-xona)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (148 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 400-uy. Tel.: (+99871) 240-08-62.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "29" noyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil "29" noyabr dagi 13 raqamli reyestr bayonnomasi)



R.H. Shirinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, filol.f.d., professor

Sh.O. Nazirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.n.

S.E. Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida ijtimoiy hodisa sifatida tan olingan tilning amaliy tomonlarini tadqiq etuvchi bir qator o'ziga xos yo'nalishlar shakllanmoqda. Zamonaviy til egalarining o'tmishi va buguni, dunyoqarashi, saviyasi, madaniy va axloqiy darajasi, etnik va diniy qadriyatlari, turmush tarzi, taraqqiyoti va tanazzuli, urf-odatlar va an'analar nuqtayi nazaridan tilshunoslikka bo'lgan yondashuvlar turli nuqtalarda farqlanadi. Shu bilan birga, tilshunoslik tarkibida muayyan predmet, hodisa yoki voqelikning sharhi muhim ekanligini hisobga olish lozim. Zotan sharh til va madaniyat, til va muloqot, til va ruhiyat mushtarakligi asosida tadqiq qilish lozimligini talab etadi. Zamonaviy sport sohasidagi sharh unga xos leksikaning lingvomadaniy, kognitiv va leksikografik tavsifini berishda muhim amaliy ahamiyatga ega jarayondir.

Dunyo tilshunosligida sport sohasiga doir sharhlar tadqiqi o'tgan asrning ikkinchi yarmida ilmiy tadqiqotchilar obyektiga aylandi va hanuz sharhning lingvistik masalalari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sohada lisoniy hodisalarning sotsiopragmatik, semantik va leksikografik strukturasi tadqiq qilish bu boradagi muammolar yechimiga olib keluvchi alohida ilmiy yo'l, desak xato qilmagan bo'lamiz. Xususan, tilni jahon miqyosida tashuvchisi sifatida namoyon qiluvchi sport sohasining xoslovchi birliklarini lisoniy va leksikografik nuqtayi nazardan o'rganish til va muloqot strukturasi tadqiqi muammosi kuchaygan bir sharoitda o'ta dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ijtimoiy masalalar, xususan, sport sohasini rivojlantirish, omma orasida targ'ib qilish, radio va televideniye orqali muntazam taqdim etish masalasi davlatning ustuvor tamoyili va taraqqiyot sharti sifatida kun tartibiga qo'yildi. Xususan, o'tgan asrning ikkinchi yarmida televideniye sohasida sport va unga doir dasturlar kichik ko'rsatkichlarni tashkil etgan bo'lsa, mustaqillik yillarida mamlakatda sport sohasi sezilarli darajada rivojlandi. Buning natijasida sport jurnalistikasi ham o'z-o'zidan yangi bosqichga ko'tarildi. Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, milliy kurashimizga oid ayrim sport atamaları dunyoning boshqa tillarida taqdim etiluvchi sharhlarda sof o'zbek tilida yangray boshladi. Mazkur lisoniy jarayonda "chala", "yonbosh", "halol" kabi so'zlarning jahonda ommalashishi o'zbek tili uchun muvaffaqiyatli natija hisoblanadi. Vaholanki, "milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish lozim"¹. Shunga ko'ra, sport uchrashuvlari, o'yinlari, bellashuvlarini sharhlar orqali lingvokulturologik, pragmatik, leksikografik jihatdan o'rganilmagani, ularning sotsiolingvistik qiymati va ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq masalalar hozirgacha maxsus monografik tadqiq obyekti bo'lmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi. Zero, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri "Milliy sport turlarini rivojlantirish va ommaviyligini oshirish, ularni Osiyo va Olimpiya o'yinlari dasturlariga kiritish

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги «Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади» мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish"² hisoblanadi va har bir millatning madaniyati xalqning tili orqali ifodalanadi hamda ommaviy axborot vositalari yordamida sharh bilan yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2003-yil 4-noyabrdagi 484-son Qaroriga asosan 2004-yil 1-yanvardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi 4-Xalqaro telekanali negizida "Sport" telekanali tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining 2019-yil

12-dekabrda 989-son "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risida nizomni tasdiqlash haqidagi", 2020-yil 29 yanvardagi 40-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiyaning ilmiy natijalari ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³.

Sport sharhi va uning lingvistik masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Pensilvaniya Universiteti, AQSh (University of Pennsylvania, the USA), Nebraska Universiteti, AQSh (University of Nebraska, the USA), Sharqiy Tennessi Davlat Universiteti, AQSh (East Tennessee State University), Nevada Universiteti, AQSh (University of Nevada, the USA); Oksford Universiteti Til markazi, Angliya (Oxford University Language Centre, England); Avstraliya Milliy universiteti (Australian National University); Bordo Universiteti, Fransiya (University of Bordeaux, France); Boku Davlat universiteti, Ozarbayjon (Baki Dövlət universiteti); Poznan Universiteti, Polsha (Poznan University, Poland); Xitoyning Lanchjou Universiteti (Lanzhou University, China); Ayn-Shams Universiteti, Misr (Ain shams

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги "Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5924-сонли фармони.

³Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи www.utexas.edu, www.berkeley.edu, www.northwestern.edu, www.bu.edu, adwww.ecu.edu.au, unice.fr/en, www.u-bordeaux.com, www.lang.ox.ac.uk, english.pku.edu.cn, www.sophia.ac.jp/eng, www.u-tokyo.ac.jp/en, bsu.edu.az, www.msu.ru, www.bashedu.ru, www.kaznu.kz, www.navoiy-uni.uz ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

University, Cairo); Bog‘dod Universiteti, Iroq (University of Baghdad, Iraq); Moskva davlat universiteti, Boshqirdiston davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi); Qozoq milliy universiteti (Qozog‘iston); shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Sport sharhlarining shakllanishi va rivojlanishida xorijiy va milliy tillar leksik birliklarining o‘zaro ta’sir qonuniyatlarining bir nechta bosqichda kechishi, jumladan: qabul qiluvchi tildan leksik birlikning kirib kelishi, shakllanishi va yo‘qolishi, sohaning maxsus maqsadlar uchun til sifatida bunday rivojlanishi ma’lum darajada sportchilarning soha ko‘lamidagi madaniyatini rivojlantirishning ba’zi xususiyatlarini aks ettirishi isbotlangan. Jahon izohli lug‘atshunosligida sport sharhlarida qo‘llanuvchi xoslangan leksik birliklarning til va madaniyat mushtarakligi hamda lingvomadaniy aspekti o‘rganilib, ulardagi til va madaniyat mushtarakligini ta’minlovchi tashqi, ichki va lingvistik omillar aniqlangan.

Sport sohasi sharhlari tarkibidagi birliklarni kognitiv-pragmatik va leksikografik aspektda tadqiq etish yangi soha bo‘lishiga qaramay jahon tilshunosligida ancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sport sohasi sharhlari tarkibidagi birliklarning kognitiv-pragmatik va leksikografik aspektda tadqiq etish yangi soha bo‘lishiga qaramay jahon tilshunosligida ancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, sharhlar diaxroniyasi A.Kameron tomonidan o‘rganilgan⁴, lingvokulturologik aspektda shakllanishi T.Brukning ilmiy izlanishlarida aks etgan⁵, sport sharhlarining leksikografik xususiyatlari M.Meschning ilmiy ishlarida⁶, sharhlarning funksional stilistik xususiyatlari M.Baltser-Sayber⁷, sharhlarning lingvopragmatik masalalari Kamol va Tolib Abdulmajidlar tomonidan o‘rganilgan⁸. Shuningdek, nominativ birliklar semantikasining konnotativ aspekti V.N. Teliya⁹, so‘z leksik ma’nosining baho komponenti S.S. Xidekel, G.G. Koshel¹⁰ ishlarida tahlilga tortilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida sport sharhlari va terminologiyasi tizimi masalalari bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu yo‘nalishda V.D. Shvayko, R.V. Popov, M.A. Adnan, R.V. Vaynz, Y.I. Gureyeva, D.A. Bastrikov, M. Meshch, P. Vayt, Z. Murzoyev¹¹ kabi xorij olimlari hamda

⁴Cameron A. Greek Mythography in the Roman World. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – R. 3.

⁵Brook T. The Confusions of Pleasure: Commerce and Culture in Ming China. – Berkeley: University of California Press, 1999. – 21 p. ISBN 0-520-22154-0.

⁶Mesz M. Lexicological view of the language of the sport commentaries. – České Budejovice, 2014. – 144 p.

⁷Balzer-Siber M. Functional and Stylistic Features of Sports Announcer Talk: A Discourse Analysis of the Register of Major League Soccer Television Broadcasts. <https://dc.etsu.edu/etd>, English Language and Literature Commons.

⁸Abdulmajeed R.K. & Abdulmajeed A.T. The Pragmatics of Amusement in Selected British Football commentaries // International Journal of English Linguistics. Published by Canadian Center of Science and Education Vol. 9, No. 1; 2019 ISSN 1923-869X E-ISSN 1923-8703.

⁹Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М., 1986. – 144 с.

¹⁰Хидекель С.С., Кошель Г.Г. Оценочный компонент лексического значения слова // Иностранные языки в школе. – М.: Просвещение, 1981. – № 4. – 7-10 с.

¹¹Швайко В.Д. Лингвостилистические особенности фразеологических единиц образованных от сверсловных спортивных терминов и профессионализмов (на материале современного английского языка): Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1984. – 290 с.; Попов Р.В. Русская спортивная терминология: на материале баскетбольной терминосистемы: Дисс. ... канд. филол. наук – Северодвинск, 2003. – 168 с.; Аднан М.А. Языковые новации и речевые изменения в русской спортивной лингвокультуре XXI века: Дисс. ... канд. филол. наук – Курск. 2013.; White P. Chambers Sport factfinder. – Edinburg: Chambers, 2005. – P. 786.; Мирзоев З. Спортивные термины в таджикском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2005. – 210 с.; Гуреева Е.И. Спортивная

Y.S. Sholomitskiy, R. Ismoilov, M. Norkin, X.T. Rafiyev, M.X. Boboyorov, N.N. G'afforov, N.A. Ayakulov, Z.A. Abdullayeva¹² kabi o'zbek olimlari tadqiqotlar olib borishgan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari – turk tili sharhlarining ibtidosi, qolaversa, shaxsi noma'lum "At-tuhfa zakiyatu fil lug'uti turkiya" asarlarida ham jismoniy harakatlarga nisbatan izohlar, sharhlar berilgan. Abu Nasr Forobiyning sharhlari to'plami sifatida alohida "Taliqot" (sharhlar) asarini meros qilib qoldirgan. Abu Ali ibn Sino tomonidan yozilgan "Tib Qonunlari" asarida kundalik jismoniy harakatlarga nisbatan sharhlar qayd etilgan¹³.

Dunyo tilshunosligida sport sharhlari va terminologiyasi masalalari bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu yo'nalishda K. Levi-Stross, Ch. Pirs, M.A. Adnan, R.V. Vaynz, Y.I. Gureyeva, M. Meshch, P. Vayt, Z. Mirzoyev¹⁴ kabi xorijiy olimlar hamda Y.S. Sholomitskiy, R. Ismoilov, M. Norkin, X.T. Rafiyev, M.X. Boboyorov, Z.A. Abdullayeva¹⁵ kabi tilshunoslarning ishlarini keltirish mumkin.

Mazkur sohada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramay, o'z yechimini topmagan masalalar ham mavjud, bu esa ularning tadqiqi muammosiga yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Jumladan, R.V. Vaynz sport sharhlarida

терминология в лингвокогнитивном аспекте: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2007. – 176 с.; Бастриков Д.А. Комментирование художественного текста при формировании лингвокультурной компетенции иностранных учащихся // филология и культура // Philology And Culture. – 2021. – №4 (66).; Mesz M. Lexicological view of the language of the sport commentaries. – České Budyě jovice, 2014. – P.144.; Wines R.W. Sporting Frenchness: Nationality, Race, and Gender at Play: A dissertation for the degree of PhD. – Michigan University, 2010. – 223 p.

¹²Шоломицкий Ю.С. Физическая культура и спорт в советской Средней Азии и сопредельных странах востока: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1972. – 25 с.; Исmoilov P., Норкин М. Русча ва ўзбекча спорт-физкультура терминлари изоҳли луғати. – Тошкент, 1961. – 95 б.; Рафиев Х.Т. Некоторые вопросы преподавания физической культуры в Узбекских школах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1972. – 25 с.; Бобоёров М. Х. Мустақиллик даври спорт атамаларининг шаклланиши: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Самарқанд, 2009. – 22 б.; Гаффоров Н.Н. Спорт терминларининг лисоний тадқиқи: когнитив-прагматик ва лексикографик хусусиятлари: Фил. фан. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 52 б.; Аякулов Н.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг киёсий-типологияк тадқиқи: PhD., дисс. автореф. Тошкент. – 2021. – 32 б.; Абдуллаева З.А. Ўзбекистонда спортнинг шаклланиш ва ривожланиш тарихи: Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 32 б.; Худойберганава Д. Мустақиллик даврида спортга доир лексемалар тараққиёти // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий-амалий анжуман (ижтимоий фанлар). – Бухоро, 2017. – 124 б.

¹³Кошгарий М., Девони луғатит турк. – Тошкент: Фан, 1961. – 230 б.; Аттухфатуз закияти филлуғатит туркия (Мўғуллар давридан етиб келган, муаллифи номаълум асар). – Тошкент: Фан. – 1968. – 231 б.; Аликулов Х. А., Этические воззрения мыслителей Средней Азии и Хорасана. – Т., 1992.; Ибн Сино. Тиб қонунлари. I- китоб. – Тошкент: Фан, 1983. – 549 б.

¹⁴Леви-Строс К. Структурная антропология. – М., 1985. – 41 с.; Collected Papers of Charles Sanders Peirce. Volumes 1-8 Charles Sanders Peirce.; Аднан М.А. Языковые новации и речевые изменения в русской спортивной лингвокультуре XXI века: Дисс. ... канд. филол. наук. – Курск, 2013. – 45 с.; White P. Chambers Sport factfinder. – Edinburg: Chambers, 2005. – 786 p.; Мирзоев З. Спортивные термины в таджикском и английском языках: Дисс.канд.филол.наук. – Душанбе, 2005. – 210 с.; Гуреева Е.И. Спортивная терминология в лингвокогнитивном аспекте: Дисс. ...канд. филол. наук. – Челябинск, 2007. –176 с.; Mesz M. Lexicological view of the language of the sport commentaries. – České Budyě jovice, 2014. – 144 p.; Wines R.W. Sporting Frenchness: Nationality, Race, and Gender at Play: A dissertation for the degree of PhD. – Michigan: Michigan University, 2010. – 223 p.

¹⁵Шоломицкий Ю. С. Физическая культура и спорт в советской Средней Азии и сопредельных странах Востока: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1972. – 25 с.; Исmoilov P., Норкин М. Русча ва ўзбекча спорт-физкультура терминлари изоҳли луғати. – Тошкент, 1961. – 95 б.; Рафиев Х.Т. Некоторые вопросы преподавания физической культуры в узбекских школах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1972. – 25 п.; Бобоёров М. Х. Мустақиллик даври спорт атамаларининг шаклланиши: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Самарқанд, 2009. – 22 б.; Абдуллаева З.А. Ўзбекистонда спортнинг шаклланиш ва ривожланиш тарихи: Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 32 б.; Худойберганава Д. Мустақиллик даврида спортга доир лексемалар тараққиёти // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий-амалий анжуман (ижтимоий фанлар). – Бухоро, 2017. – 124 p.

uchrovchi diskriminativ leksikaning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etgan bo'lsa, M. Meshch sport sharhlarining pragmatik va stilistik xususiyatlarini yoritib berishga harakat qilgan. V.D. Shvaykoning ilmiy izlanishlari ingliz tilidagi sport sohasi frazeologik birliklarining tadqiqiga bag'ishlanganligi bilan xarakterli. O'zbek tilshunosligida M.X. Boboyorov soha terminologiyasining o'zbek tili ichki imkoniyatlari hamda tashqi omillar asosida rivojlanish jarayonlarini yoritgan.

Biroq ingliz va o'zbek tilidagi sport sharhlarining lingvistik xususiyatlari tadqiq etilmagan. Sport sharhlarini xoslovchi birliklarning qo'llanishi, taraqqiyoti, mavjud umumiy va sohaviy lug'atlarda berilishi muammosi monografik planda o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek adabiyotining xorijda o'rganilish va tarjimashunoslik masalalari hamda chet til ta'limi muammolari" bandi bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida taqdim etiluvchi sport sharhlarini xoslovchi leksik birliklarning takomillashuvini aniqlash hamda sharhni to'laqonli yoritishda lingvostilistik va pragmatik yondashuvlarning tahlil metodologiyasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tillaridagi sport sharhlari leksikasi: termin va neologizm lisoniy shakllanishini tavsiflash;

ingliz va o'zbek tillaridagi sport sharhlarida qo'llanuvchi leksikaning diaxron, derivativ, semantik strukturasi aniqlash;

chog'ishtirilayotgan tillar sport sharhlarida fonetik va leksik stilistik vositalarning semantik xususiyatini tavsiflash;

chog'ishtirilayotgan tillardagi sharhlarning stilistik xususiyatlariga ko'ra formal shakl va lingvostatistik tahlilni amalga oshirish;

ikki tillar misolida sport sharhlarining pragmatik xususiyatini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillaridagi sport sharhlarining lisoniy xoslanish tafovutlarini aniqlash va tamoyillarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, kontrast, tasniflash, kontekst, distributiv, struktur, statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi ommaviy axborot vositalari hamda matbuot sahifalarida aks etgan sport sharhlarining lisoniy xoslanish tamoyillari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tilidagi sport sharhlarini xoslovchi birliklarning leksik-semantik, stilistik, pragmatik, semantik jihati tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sport sharhlarida mavjud leksik birliklarni chog'ishtirish orqali tadqiqotga tortilgan tillarning morfologik, leksik-semantik, funksional-semantik va sintaktik usullarining takomillashuvida tillarga xos bo'lgan allomorflik va izomorflik xususiyatlari dalillangan;

sport sharhlarida qo'llaniluvchi terminlarning tarixiy-genetik ildizlari aniqlanib, ularning lingvistik tadrijiy taraqqiyot bosqichlaridagi semantik va fonetik o'zgarishlari faktik-analitik manbalarga muvofiq asoslangan;

ingliz va o'zbek tili sport sharhlarida fonetik, leksik, stilistik vositalarning sharhda qo'llanilishiga ko'ra kognitiv va estetik-madaniy belgilarini o'z ichiga oluvchi murakkab, ko'p o'lchamli lingvistik hosila ekanligi isbotlangan;

sport sharhlarida ichki va tashqi qofiya fenomenini mustaqil tadqiq qilish hamda gap tarkibida qatnashadigan qofiyalarning strukturaviy xususiyatlari hamda ularda yangi semantik ma'no vujudga kelishi aniqlangan;

sharhlash jarayonida yashiringan ma'no yaratish, xabar taqdimotini modifikatsiyalash, sharhlararo kognitiv aloqani yaratish, auditoriya bilan uyg'unlikni o'rnatish va (ijobiy va salbiy) xulosa qilish kabi lingvistik xususiyatlar sharhning pragmatik muvofiqligiga asos bo'lishi isbotlangan;

ingliz va o'zbek tili sport sharhi materiali asosida nutqdagi jozibadorlik, tasviriylik, ramziylik, ijodkorlik, nutqiy ravonlik singari lisoniy funksional xususiyatlar orqali sharhlovchi nutqining lisoniy xoslanish tafovutlari aniqlangan va takomillashuv tamoyillari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar bilan belgilanadi:

tahlillarimiz asosida sharhlovchi nutqida mavjud o'zlashma, yarim kalkalash orqali kirib kelgan terminlarni o'zbekcha nominativ birliklar vositasida qo'llashga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek tillari sharhlari tarkibida mavjud sportga oid o'zlashma leksik birliklar tarixiy-qiyosiy usul asosida asliyat va areal-hududiy miqdor ko'rsatkichi taqdim etilgan;

sport sharhlovchilarining real vaqtda, yuqori bosimli vaziyatlarda nutqda pragmatika ifodalardan foydalanish orqali noyob lingvistik kontekstni taqdim etishi ochib berilgan;

stilistik vositalar sport turi voqeliklarini hayajonli, yorqin, qiziqarli, jozibali va dramatik ravishda taqdim etilishiga xizmat qiluvchi lisoniy mezon ekanligi yoritilgan;

sharhlash jarayonida stilistik emotsionallikni oshirishda ritm va nutqning qarama-qarshi harakatlanishi lingvostatistik tahlillar asosida ochib berilgan;

sharh voqeligini ifodalovchi pragmatik inferensiya hodisasi doimo ikki ko'rinish (perklyuziya va konsolyatsiya)dan birida namoyon bo'lishi yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kognitiv, lingvokulturologik jarayonning sport sharhlari lingvistik xususiyatlarini ilmiy xulosalar va muhim nazariy umumlashtirishlar asosida o'rganish, turli millatlarning sport terminologiyasi mazmun-mundarijasining madaniy-maishiy, zamonaviy jarayonlar tahliliga ma'lum darajada hissa qo'shishi, shuningdek, dissertatsiya natijalari o'zbek milliy lug'atchiligini takomillashtirishi, tilni lingvokulturologik va kognitiv tadqiq qilish asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalardan maxsus kurslar ishlab chiqishda, "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Tilshunoslik" fanlariga oid darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, dissertatsiya materiallaridan "Matn tahlili", "Nazariy tilshunoslik", "Lingvomadaniyatshunoslik", "Psixolingvistika", "Nutq madaniyati", "Leksikografiya asoslari", "O'zbek va ingliz tili terminologiyasi" kabi fanlar bo'yicha talaba, magistrant va doktorantlar uchun fakultativ mashg'ulotlarda foydalanish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilidagi sport terminlarining formal, semantik va kognitiv strukturasi tavsifini berish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

chog‘ishtirilayotgan tillardagi sport sharhlarida ifodalanuvchi stilistik vositalarining turli mazmuniy hamda semantik munosabatlar mantiqiy yaxlitlangan umumiy tavsifi va tabiatini ifoda etish maqsadida taqdim etilgan xulosalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan TRIGGER: “Triggering innovative approaches, entrepreneurial skills and attitudes in HEI learners through creating the favourable conditions for graduate’s employability in Central Asia” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Namangan muhandislik va texnologiyalar institutining 2024-yil 6-maydagi 464/024-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, innovatsion tadqiqot loyihasi asosida nutqda lingvistik va kommunikativlik qobiliyatini oshirish, chog‘ishtirma tilshunoslik va stilistika sohalaridagi bilimini oshirish hamda ta’lim tizimi jarayonini mustahkamlash, xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda yangi yondashuvlar sifatida mazkur tadqiqot ishidagi tahlil natijalarini ochib berishda qo‘llanilgan;

chog‘ishtirilayotgan tillarning sport sharhlarida fonetik va leksik stilistik vositalarning sharhda qo‘llanilishiga ko‘ra kognitiv va estetik madaniy belgilarini o‘z ichiga oluvchi murakkab, ko‘p o‘lchamli lingvistik sohasi leksik birliklarini qiyosiy-tipologik aspektdagi tadqiqot xulosalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2024-yil 16-apreldagi 791/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan tavsiyalar institutning o‘quv jarayoni va xalqaro loyihalarini amalda oshirishda ko‘maklashgan;

sport sharhlarida qo‘llanuvchi terminlarning tarixiy-genetik ildizlari, tadrijiy taraqqiyot bosqichlari, mavjud so‘zlarning qayta uslubiy chegaralanishi, ularning semantikasidagi o‘ziga xos o‘zgarish va yangilanishlarga oid xulosalardan Portu universiteti FEUP – Faculdade de Engenharia Universidade do Porto ta’lim yo‘nalishi ilmiy qo‘llanmasida foydalanilgan (Portu universiteti 2024-yil 20-fevraldagi -4200-465 PORTO-NIPC 600 027 716-sonli ma’lumotnomasi). Natijada sohaga oid o‘quv materiallarini nazariy jihatdan takomillashtirishga samarali manba bo‘lib xizmat qilgan;

sport sharhlarining xoslovchi birliklarini tadrijiy diaxron takomillashuvi, termin va neologizmlarning ingliz va o‘zbek tillari chog‘ishtirma aspektda vujudga keluvchi ayrim tilshunoslik va sport jurnalistikasiga oid fikrlar, xulosalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Katta tanaffus”, “Ta’lim va taraqqiyot” nomli radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 15-apreldagi 04-36-498-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, hozirgi kunda keng qo‘llanuvchi, ommabop hamda nutqimizda uchrayotgan yangi jismoniy tarbiya va sportga doir leksik birliklarning

ingliz, o'zbek tillarida shakllanishida o'ziga xos o'xshashlik va farqli jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari borasidagi bahs-munozaralarga oydinlik kiritilgan;

ikki tilni qiyosiy tahlil qilish orqali sharhlash jarayonida yashirin ma'noning rivojlanishi, xabar taqdimotini o'zgartirish, fikr bildirishda kognitiv aloqani yaratish, tinglovchilar bilan uyg'unlikni o'rnatish kabi xulosalaridan Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universitetining 2024-yil 22-maydagi № 1419-ma'lumotnomasi) ta'lim yo'nalishi ilmiy qo'llanmasida foydalanilgan. Natijada sohaga oid o'quv materiallarini nazariy jihatdan takomillashtirishga samarali manba bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 2 ta monografiya va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola (shu jumladan, 12 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 228 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning respublika fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlari bilan aloqadorligi asoslangan, tadqiqot mavzusi bo'yicha chet el va mamlakat adabiyotlarining sharhi keltirib o'tilgan, ishning maqsadi va vazifalari, uning obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotda qo'llanilgan metodlar ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalar ishonchliligi asoslab berilgan, dissertatsiya ishining tatbiq qilingani, chop ettirilgani, aprobatyasi va tuzilmasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Tilshunoslik sohasida sport sharhlari ilmiy-nazariy obyekt sifatida”** deb nomlangan bo'lib, unda umumiy sharh tarixiga doir dastlabki qarashlar va tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishining murakkabliklari va sharhning serqirralik jihatlarini hisobga olingan holda tahlil qilinishining boshlang'ich nazariy qoida va yondashuvlari aniqlangan. **Sharh** termini arab tilida – *izohlash, tushuntirish* kabi ma'nolarni beradi. Xususiyatiga ko'ra uning ikki turi mavjud. Jumladan, 1) kitob sharhi – kitob matniga izoh berish, unga ilmiy izoh, ma'lumot beruvchi qismi. Yozma manbalarda (asar, tarjima, hujjat kabilar) matnning mazmun va mohiyatini tushuntirib berishda qo'llanadi. **Sharh** ko'p hollarda qisqa va foydalanishga qulay bo'lib, odatda, matndan keyin alohida ma'lumot tariqasida joylashtiriladi, biroq tarixiy yoki mumtoz asarlarga nisbatan alohida kitob shaklida berilishi ham mumkin. 2) jurnalistika sohasining janrlaridan biri. Ommaviy axborot vositalari (keyingi jumladan OAV shaklida qo'llanilgan)da ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy voqea-hodisalarning mohiyati hamda ahamiyatini ommaga tezkorlik bilan izohlab, bayon qilib berishga

mo'ljallangan taqdimot materiali turi. *Sharhlar* jarayonida mavzuga doir faktlarni tahlil qilish, taqqoslash, fikrni dalillashning turli vositalaridan foydalanish, umumlashtirish, xulosa yasash kabi usullardan keng foydalanish mumkin. Taqdimot tartibi va bayon qilish uslubiga ko'ra *sharhlar* jarayoni radio, televideniye, matbuot va internet saytlari uchun alohida mo'ljallangan bo'ladi¹⁶.

Tarixiy manbalarga tayanadigan bo'lsak, qadimgi yaqin Sharqdan hozirgi kungacha saqlanib qolgan minglab matnlarning aksariyatida bo'lgani kabi Mesopotamiya matniga sharhlar ham mixxat (qadimda Old Osiyoda qo'llangan, mix yoki ponachalarga o'xshash chiziqcha (belgi)larni loy taxtachalarga o'yib tushirishdan iborat ideografik yozuv turi) yozuvida loy lavhalarga yozilgan. Matn sharhlari akkadning sharqiy semit tilida yozilgan, ammo shumer tilida yozilgan leksik ro'yxatlarning mixxat yozuviga ta'siri tufayli ular ko'pincha shumer so'zlari yoki iboralarini o'z ichiga olishi aniqlangan¹⁷.

Keyinchalik Rim hukmdori Yuliy Sezar tomonidan *Commentarii de Bello Gallico* (Galliya yangi sharhlari) to'plami yaratiladi. Asar miloddan avvalgi 58-49-yillarda yozilgan. Mazkur asarda Sezar Galliyadagi kelt va german xalqlarining to'qqiz yil davomida Rim istilosiga qarshi janglari va fitnalari tasvirlanadi. Oradan biroz vaqt o'tib, Sezarning *Commentarii de Bello Civili* (Fuqarolar urushi haqida sharhlar) deb nomlangan ikkinchi asari dunyoga keladi¹⁸.

Shuni ta'kidlash lozimki, Osiyo hududida yangilik va yangi voqelik sharhiga doir nashrlar hamda alohida e'tibor Xitoyning Xan sulolasiga taalluqlidir. Ular milodiy II va III asrlarda o'z xalqiga **Dibao** – adliya va administratsiya ishlariga doir yangilik varaqalarini taqdim etishgan. 1582-yilga kelib, Minglar sulolasi tomonidan **Dibao** yangilik qog'ozlari kundalik va haftalik sifatida rasman nashr etila boshlandi¹⁹.

Televideniya birinchi jonli televizion sport tadbiri, sharhlovchi sifatida boks bo'yicha o'zi sobiq o'rta vazn chempioni va Olimpiya o'yinlarining oltin medali sovrindori Garri Mellin (Harry Mallin)ga ishonib topshirilgan. Sharhlovchi 1937-yil 4-fevraldagi Angliya va Irlandiya o'rtasidagi boks uchrashuvini sharhlab bergan²⁰.

O'zbek radiosi haqidagi manbalarga tayansak, 1915-yili Toshkentda Markaziy Osiyodagi birinchi kuchli qabul qiluvchi va uzatuvchi radiostansiya ishga tushirilgan. Qayd etish joiz, O'zbekistonda radioning ilk faoliyatidan boshlab sport sohasiga doir dasturlarga joy ajratilmagan edi. II jahon urushi yillarida radio sohasi faqat frontga doir eshittirishlarni bergan bo'lsa, 1955-yildan boshlab radioeshittirishlar tarkibida turli yangiliklar tatbiq etilgan. Masalan, 1960-yilda O'zbekiston radiosi tomonidan birinchi marta futbol reportaji stadiondan jonli ravishda olib ko'rsatilgan²¹.

¹⁶ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-sh/sharh-uz>

¹⁷ Gibson R.K., Kraus Ch. The Classical Commentary: Histories, Practices, Theory (limited preview). – Brill, 2002. – ISBN 90-04-12153-6.

¹⁸ Damon C. Studies on the Text of Caesar's Bellum Civile. I edition. – Oxford: Oxford publication, 20015. – ISBN 978-0-19-872406-3.

¹⁹ Brook T. The Confusions of Pleasure: Commerce and Culture in Ming China. – Berkeley: University of California Press, 1999. – 21 p. ISBN 0-520-22154-0.

²⁰ <https://www.bbc.com/historyofthebbc/anniversaries/february/first-tv-sports-commentary/>

²¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/02/13/radio>

O'zbek televideniyesida sport sharhlari 1963-yilga to'g'ri kelsa-da, Sobiq Sho'rolar davrida sharhlar rus tilida olib borilgan. 1964-yilda Toshkent finalida Torpedo (Moskva) va Dinamo (Tbilisi) jamoalarining uchrashuvi ham rus tilida olib borilgan, sharhlovchi Turpishyev Roman "Paxtakor" jamoasi matbuot xizmatchisi bo'lgan. Keyinchalik o'zbek tilidagi sharhlar taqdim etila boshlangan, Axbor Imomxo'jayev ilk o'zbekzabon sharhlovchi hisoblanadi. Sportga oid yangiliklar Abduxakim Turg'unov tomonidan berib borilgan²².

Televideniye orqali sharhlash sharh jarayonini mutlaqo boshqa darajaga olib chiqdi. Dastlabki sharhlarda kuzatiladiki, jonli uchrashuvlarda sportchilarning harakatiga nisbatan bevosita obyektiv va real yondashiladi, ya'ni qanday harakat qilgan bo'lsa, shunday ifodalangan. Keyinchalik sharhlovchilar o'yinlarni lingvistik vositalar orqali boyita boshlagan, jumladan, sharh jarayonida turli stilistik vositalar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, antiteza kabi lisoniy vositalarni qo'llash orqali muxlislarni his-hayajonda ushlab turishgan.

Bundan tashqari sohaning imkoniyatlari kengayishi natijasida sharh turlari vujudga kela boshlagan.

Radio orqali: a) *yozib olingan sharh*;

b) *to'g'ridan-to'g'ri sharh* (jonli).

Televideniye orqali: a) *o'yindan oldingi intensiv sharh*;

b) *to'g'ridan-to'g'ri sharh* (jonli);

c) *o'yindan keyingi tahliliy sharh*;

d) *yozib olingan sharh*.

Zamonaviy ingliz tilida ikki mingdan ortiq kanallar va mingga yaqin sport sohasiga doir kanallar, internet saytlari faoliyat yuritmoqda. Bu borada Friborn: "Sharhlovchilarning o'ziga xos uslublari bo'lsa-da, ular ingliz tilidan foydalanishda juda ko'p umumiy xususiyatlarga ega, shuning uchun yozilmagan sharhni turli xil og'zaki ingliz tili uslubi deb ta'riflash mumkin"²³, deya qayd etgan.

Hozirgi ingliz tili sharhlarida *play by play* – o'yin vaqtidagi jonli sharh, *color commentary* – o'yin davomida ikkinchi sharhlovchi tomonidan taqdim etiluvchi qo'shimcha ma'lumotlar sharhlari mavjud. O'zbek tilida esa har ikki turdagi sharh ko'p hollarda bir sharhlovchi tomonidan amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**O'zbek va ingliz tili sport sharhlarining terminologik aspektidagi tadqiqi**" deb nomlanadi. Bu bobda sport sharhlarining xoslovchi birliklari bo'lgan terminlarning shakllanish tarixi, mazmun-mohiyati, nomlanish tarixi o'rganildi, o'zbek tilidagi ushbu soha terminlarining yozma manbalar asosida shakllanish tarixi davrlarga ajratib tasniflandi, takomillashuvdagi faol va nafaol usullar tahlilga tortildi, o'xshash va farqli jihati lingvostatistik tarzda tahlil qilindi.

Ma'lumki, ona zaminimizda dunyo fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslar yetishib chiqqan. VIII–IX asrlardayoq "Baytu al-hikma" (Donishmandlar uyi) deb atalmish fanlar akademiyasi, oradan biroz vaqt o'tib, 1010-

²²<https://tashkentpamyat.ru/turpishhev-roman-abdullaevich-sportivnijj-zhurnalistikommentator-.html>

²³Freeborn D. Varieties of English, Paul & Co. Pub. Consortium, 1997. – 126 p.

yilda Ma'mun akademiyasi tashkil etilgan. Mazkur akademiyada butun dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk kashfiyotlar qilingan. Biroq o'sha davr olimlari qoldirgan ulkan ma'naviy va madaniy merosni hamma vaqt ham to'liq va asl holda saqlab qolishning imkoni bo'lmagan. Natijada barcha sohalar singari tilshunoslik sohasi rivojida ham o'ziga xos oqsashlar kuzatildi.

Qoraxoniylar davrida (X-XII asrlar) yashab ijod etgan Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit-turk" asari bilan tilshunoslik sohasiga, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sportga oid terminlar rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Zero, M. Koshg'ariy turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olim sifatida tilga olinadi. Olimning asarini o'rganib chiqish jarayonida o'sha davrning sport sohasiga oid 140 dan ortiq leksik birliklar va ularning ifodasi aniqlandi. Olim turkiy til lug'atini yaratishda arab imlosidan foydalangan bo'lib, u hozirgi ko'rinishga eski turk imlosi orqali yetib kelgan.

اشُق - **ashuq** - **dubulg'a**, **temir qalpoq**; اُرْكَن - **urkan** - **qayish**; اَلِكَلِكْ - **eliklik** - **qo'lqop**; اِقْلَاجْ - **iqilach** - **poygachi ot**; اَيْنْ - **yün** - **o'yin**; اَرْجِي - **archi** - **sumka**, **to'rva**; اَتِم - **atim** - **mergan**; يَا - **ja** - **yoy**; اُقْلُقْ - **oqluq** - **sadoq**; چَاوْگَن - **chävgän** - **chavgon**²⁴.

M.Koshg'ariy har bir so'z va so'z birikmasiga turkiy tillarda izoh, sharh va misollar keltirgan. Masalan, **attı - otdi**, **ır oq attı** (اَزْ اُقْ اَتِي) - **odam o'q otdi**; **uttı - yutdi**, **ol anı uttı** (اَلْ اَنِي اَتِي) - **u o'yinda yutdi**²⁵.

Olimning ishlarini o'rganilib, "Devon"dagi sportga oid ayrim leksik birliklar ilmiy tahlil qilingan va ular hozirgi kunda qaysi sport turi va terminga aloqador ekanligi aniqlanib, ma'lumotlar jadval asosida taqdim etilgan (1-jadval).

Mo'g'ullar istilosi davri. Ushbu davrda barcha sohalar singari tilshunoslik sohasida ham bo'shliq paydo bo'lgan bo'lsa-da, mo'g'ullar istilosi turkiyzabon xalqlarning madaniyati rivojiga salbiy ta'sir eta olmadi.

1-jadval

"Devon"da keltirilgan sportga oid leksik birliklar

	Arab imlosi	Lotin imlosi	Ma'nosi	Hozirgi sport turida
1	قِيلِجْ	qilich	qilich	qilichbozlik
2	اَتَا	at	ot	ot sporti
3	اَقْ	oq	o'q	kamonda o'q otish
4	اَمَكْ	amag	nishon	kamonda o'q otish
5	اُرُقْ	uruq	arqon	atletika
6	اُرْكَن	urkan	qayish	og'ir atletika
7	اُلُقْ	uluq	qayiq	suv sporti

Temuriylar davri. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligi tarixida temuriylar davrining ahamiyati beqiyosligi bilan ajralib turadi. A.Temurning hukumronligi davrida ilm-fan, madaniyat, san'at gullab-yashnadi va turkiy (o'zbek) tilining fors tili bilan teng darajaga chiqishiga shart-sharoit yaratib berdi. Bu davrga

²⁴Кошғарий М. Девони луғатит турк. – Тошкент: Фан, 1961. – 230 б.

²⁵Саримсоков Б. Фольклор ва ўзбек адабиётига доир изланишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – № 5. – 35-37 б.

kelib sport turlarining shakllanishi soha leksik birliklarining umumiste'moldagi so'zlardan alohida atama sifatida ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. Hozirgi kunda milliy-ma'naviy merosga aylangan "Temur tuzuklari" asarining o'zida jismoniy tarbiya va sport sharhlarida qo'llanuvchi yuzga yaqin leksik birliklar mavjud. Alohida qayd etish kerak, o'z davrida ushbu leksik birliklar harbiy soha tarkibida qo'llangan. Masalan: سُوَارِي - **suvoriy**; سِبْهِي - **sipohi**; كَامَار - **kamar**; خَايَلَا - **xayla**; جَادِر - **chodir**; سَاوُب - **sovut**²⁶.

Bu tarixiy davrga oid yana bir asar Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" (Ikki til muhokamasi) asaridir. Mutafakkir Alisher Navoiy *jismoniy tarbiya* atamasi o'rnida *ko'ngil tarbiyasi* atamasini ham ishlatadi: "*Ko'ngil badan mulkining podshosidir. Ko'ngilning salomatligi – badanning ham salomatligidir*", – deya e'tirof etgan²⁷. Bundan tashqari, u o'zining "Hayrat ul-abror" va "G'aroyib us-sig'ar" dostonlarida shaxmat sport sohasi haqidagi fikr va mulohazalarni bayon etib, shaxmatning juda qadimiy va ulkan aql-idrok talab qiladigan sport turi ekani, nafis va jozibali, shu bilan bir qatorda, murakkab o'yin ekanligini sharlab o'tgan. Shoir o'z asarlarida ushbu sport atamalaridan badiiy tasvir vositasi sifatida ham foydalangan: "*yurushda otlardek za'fi ta'rifidakim, muammo ichida otdek paydo emas...*" ya'ni "*yurgan paytda qaddi ot donasidek mag'rur deya ta'riflaysiz, ammo og'ir vaziyatda ot donasidek qaddi tik emas...*" deya ushbu baytni keltiradi.

Shoirning shaxmat o'yiniga doir quyidagicha ta'rif (sharh)lari mavjud: *shatranj* – *shaxmat (o'yini)*; *ot* – *ot figurasi*; *bisot* – *shaxmat taxtasi*; *baydaq* – *piyoda*; *shoh* – *shoh*; *pil* – *fil figurasi*; *rux* – *ruh figurasi*²⁸:

Olib qo'ysa **baydaq**ni shoh yonida,
Yana **pil** qo'ysa **rux** ayvonida²⁹.
Aningdekki tifi istabon inbisot,
Chu **shatranj** o'ynarg'a yoysa **bisot**³⁰.
Agarchi arsa xoli qolsa mutlaq,
Tutarmi anda **shoh** o'rnini **baydaq**³¹.

O'zbek tiliga doir sharhlardan eng faol va ommabop model bu *so'z o'zlashtirish* jarayonidir. Tilshunoslikda *so'z o'zlashtirish usuli* lug'at boyligining kengayib, yanada boyib borishida muhim va faol usullardan biri hisoblanadi. O'zbek tilidagi aksariyat adabiyotlarda mazkur terminning *o'zlashma so'zlar* termini bilan bevosita bog'liq ekanligi kuzatiladi. O'zbek tili sharhlari o'zlashma qatlamining tahlili shuni ko'rsatdiki, lug'at tarkibida sportga oid arab, fors, rus, ingliz, fransuz va boshqa tillaridan kirib kelgan leksik birliklar bilan mavjud. Shu bois mazkur tilda ham so'z o'zlashtirish faol usullardan biri hisoblanadi.

²⁶Темур тузуклари (Форсча матндан Алихонтўра Соғуний ва Ҳамидулла Кароматовлар таржимаси). – Тошкент, 2011. – 186 б.

²⁷Навоий А. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент: Фан, 1974. – 82 б.


²⁸Навоий А. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент: Фан, 1974. – 82 б.

²⁹Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. С.Искандарий. 11-том. – Тошкент: Фан, 1993. – 216-217 б.


³⁰Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. С.Искандарий. 11-том. – Тошкент: Фан, 1993. – 216-217 б.

³¹Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. Фарҳод ва Ширин. 8- том. – Тошкент: Фан, 1993. – 123 б.

o'zbek tili



ingliz tili



1-rasm. Ikki til o'zlashmalarining foiz ko'rsatkichi

Dissertatsiyada qayd etilganidek, *o'zbek tilidagi* sportga oid eng so'nggi lug'at tahliliga ko'ra, 306 ta o'zlashma so'zlar, jumladan: Osiyo tillaridan 149 (48.9%) ta leksik birlik, Yevropa tillaridan 157 (51,1 %) ta leksik birlik o'zlashganligi ma'lum bo'ldi. Sharh jarayonida faol o'zlashmalar va ular tegishli bo'lgan tillarni ikkiga ajratish mumkin: Osiyo (1-rasm) va Yevropa (2,5 – 1-rasm) tillari. **Ingliz tilida:** Amerika 10 ta (5,3%); Afrika 8 ta (4,2%); Okeaniya 3 ta (1,6%); Osiyo 43 ta (22,7%); Yevropa 125 ta (66,2%) birliklar lug'ati shakllanadi.

O'zbek tili sharhlarida *ort qo'shimcha qo'shish* ya'ni *suffiksatsiya* usuli faol so'z yasash usulidir, sof o'zbekcha qo'shimchalarni o'zbekcha asosga qo'shish yordamida yoki o'zbekcha qo'shimchalarni boshqa tildan olingan so'zga qo'shish orqali sportga oid birliklarni yasash mahsulдор sanaladi. Bu usul qo'shimchalari: 1) grammatik (so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha) jihatdan o'zgartiruvchi; 2) leksik (so'z yasovchi qo'shimcha) jihatdan o'zgartiruvchi ikki xil vazifani bajaradi:

O'zbek tili sharhlarida **-chi** suffiksi juda sermahsul bo'lib, sharh jarayonida 120 dan ortiq sport biliklari ushbu qo'shimcha orqali vujudga kelgan. **-chi** suffiksidan to'rt xil ma'nodagi ot so'z turkumiga mansub sport terminlari yasaladi. Misol uchun: 1) soha, tur asosida mutaxassisni ifodalovchi birliklar: *kurashchi*, *shaxmatchi*, *tennischi*; 2) guruh yoki jamoaga a'zolikni ifodalovchi birliklar: *paxtakorchi*, *navbahorchi*; 3) musobaqa ishtirokchisini ifodalovchi birliklar: *olimpiadachi*, *universiadachi*; 4) ish-harakatga qo'shilib shaxsni ifodalovchi birliklar: *ijrochi*, *yuguruvchi*, *suzuvchi*.

Ikki til sharhlarining lingvistik xususiyatlari ko'lamida kichik mikrokategorial allomorfik xususiyatlar ham uchraydi. Masalan, ingliz tilida **-er** qo'shimchasi **-chi** qo'shimchasining muqobil varianti sifatida olinsa-da, **-er** qo'shimchasida ko'p vazifalilik xususiyati mavjud emas. Shuning uchun hamma vaqt ham yasama birliklar tarkibida **-er** qo'shimchasi **-chi** qo'shimchasiga to'g'ri kelmaydi. Masalan: *polochi* – *poloist*; *karatechi* – *karateka*; *ishtirokchi* – *participant*; *sportchi* – *sportsman* kabi terminlar bunga yaqqol dalildir.

Ingliz va o'zbek tili sharhlaridagi *so'z o'zlashtirish*, *morfologik derivatsiya*, *kompozitsion* usullar ikki tilning izomorflik xususiyatidir. Ushbu jarayon ishda lingvostatistik tahlillar asosida ko'rsatilgan.

Sharhlarda mavjud soha birliklarining izomorfik tahlili

U S U L	№	Nomi	Ingliz		o'zbek		umumiy	
			№	%	№	%	№	%
	1	O'zlashma – borrowings	191	13,6	332	23,6	523	37,2
	2	Morfologik derivatsiya – affixation	40	2,8	68	4,8	108	7,6
	3	Kompozitsion – compounding	28	1,9	18	1,3	46	3,3

Tilshunoslikka doir allomorfizm ikki tillarning bir nechta morfologik jarayonlarida kuzatildi, jumladan, *qisqartirish*, *bekformatsiya* va *infiksatsiya* modellari orqali o'zbek tilida sport terminlari vujudga kelmasligi chog'ishtirilayotgan tillarning mikrokategorial allomorflik xususiyatidir (3-jadval).

Sport sharhlarining allomorflik xususiyati tahlili

U S U L	№	Nomi	ingliz		o'zbek		umumiy	
			№	%	№	%	№	%
	1	Qisqartirish usuli – clipping	14	1	0	0	14	1
	2	Bekformatsiya usuli – back-formation	7	0,5	0	0	7	0,5
	3	Infiksatsiya – infixes	3	0,2	0	0	3	0,2

Dissertatsiyaning “**O'zbek va ingliz tili sport sharhlarining stilistik xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida ingliz va o'zbek tillari sport sharhlarida yuzaga keluvchi fonetik, leksik va stilistik jihatlari, ularni qo'llash orqali yuzaga keluvchi qiyinchiliklar tahlilga tortilgan.

Adabiy tilning odatiy nutqiy vaziyatlari, turli ma'noviy va ekspressiv mazmundagi matnlarda barcha sathlar birliklarining mavjud til me'yorlari nuqtayi nazaridan amal qilishi (qo'llanishi) lisoniy birliklar stilistikasi tarkibida o'rganiladi. Mazkur birliklarning variantlari (variantdor shakllar, parallel tuzilmalar, lug'aviy va sintaktik sinonimlar)ning uslubiy bo'yog'ini lingvistik mezonlar asosida chog'ishtirish muhim hisoblanadi. Ushbu yo'nalish bir tomondan funksional stilistika, ikkinchi tomondan, matn stilistikasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Nazariy jihatdan she'riy misralar tarkibida ohangdosh so'z yoki so'z birikmalarining izchil takrorlanib kelishi qofiyadir. Qofiya she'ring mazmuni, janri, shakli va kompozitsiyasida muhim o'rin egallaydi. Qofiya hosil qiluvchi so'zlarning ohangdoshligi talaffuzda qatorlarning uyg'unligini taqdim etadi³². Zamonaviy sharhlovchilar muxlislar e'tiborini tortish maqsadida o'z sharhlarida ham qofiyaviy so'zlardan foydalanmoqda. Nasriy asarlarda qofiyaning bir necha uslubiy ko'rinishi mavjud, jumladan *full – to'liq* va *incomplete – to'liqsiz qofiya*.


To'liq qofiya nazariy va amaliy jihatdan bir tovush farqi bilan qo'llanuvchi, qolgan qismning harfi, bo'g'ini parallel keluvchi ohangdosh so'zlar sanaladi.

³²Умуров Х. Адабиёт назарияси. -Т.: Шарқ, 2002. – 256 б.

O‘zbek tilida: *topdi – chopdi; kutdi – tutdi; yashirdi – oshirdi; poyladi – joyladi; urdi – surdi;* **ingliz tilida:** *might – night; grace – race, ball – hall; yell – hell* kabi ohangdosh leksik birliklarni ko‘rsatish mumkin.

To‘liqsiz qofiya sharhlarda juda ommabop bo‘lib, ular undosh yoki unlilar o‘xshashligi bilan xoslanadi. Masalan, **o‘zbek tili:** *xato – sado; falokat – harakat; o‘ninchi – o‘yinchi; bong – jang.* **Ingliz tili:** *finesse – distress; aim – flame; deliver – shiver; joke – hook* kabilar.

I.R. Galperin yuqoridagi qofiya turlaridan tashqari *internal rhyme* – *ichki qofiyalanish* modeliga to‘xtaladi. Mazkur modelda qofiyadosh so‘zlar misra oxirida emas, balki sodda va qo‘shma gaplar tarkibida keladi. Sharh jarayonida, aynan, ichki qofiyalar sharhlar tarkibida muxlislar e‘tiborini jalb qilib, she‘riy o‘ynoqilik, estetik zavq taqdim etadi. Masalan, *Loutaro yaxshi hudud topdi, lekin pasda sal shoshdi* (X.Hamidov, MC 1-0 Inter, 28 min., 10.06.2023). Mazkur misol tahlilining nazariy shaklini dissertant tomonidan yaratilgan quyidagi formula orqali kuzatish mumkin.



Shartli belgilar: *Qo‘shma gap*


Sodda gap

To‘liqsiz qofiya

Ichki qofiyalanish

2-rasm. Qo‘shma gap tarkibidagi ichki qofiya

Tahlillar natijasida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, *qofiyaning* nazariy asosiga ko‘ra, yagona tovush (harf) takroriga asoslanadi va bu harf **raviy** (arabcha – qofiyadagi undosh tovush) deb ataladi. *Raviy* so‘z o‘zagi, yasama so‘zlarda negiz oxiridagi undosh, cho‘ziq unli, ba‘zan esa qisqa unlilarning aynan takrorlanishi tufayli yuzaga keladi, vazniy struktura asosida *raviy* gap oxirida keladi. Tipologik jihatdan o‘zbek tili gap strukturasi SOV (subject, object, verb) modeliga mansub va bir gap tarkibida ikki kesim, albatta, qo‘shma gapni hosil qiladi, bu esa sodda gaplar tarkibida qofiya yasalishi murakkab ekanligidan dalolatdir. Aksincha, ingliz tili sharhlarida *raviy* ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lishi ham mumkin. Chunki tipologik jihatdan ingliz til strukturasi SVO modeliga asoslanganligi bois bu jarayon sharh tarkibida mavjud. Masalan, *Now, it is Mahrez a star in Paris in the last year* (P.Drury, MC 4-3 RM. 2 min. 26.04.2022). Mazkur misol tahlilining nazariy shaklini dissertant tomonidan yaratilgan quyidagi formula orqali kuzatish mumkin.



Int.R

SS –simple sentence

Inc.r – incomplete rhyme

Int.R – internal rhyme

S- subject


V-verb

Ob. -object

3-rasm. Ingliz tili soda gaplarda ichki qofiya.

Demak anglashiladiki, *qofiya* – *rhyme* faqat nasriy adabiyot sohasigagina tegishli bo‘lib qolmasdan, turli ko‘rinishdagi nutqiy ijodiy jarayonlarga ham xos, deyish maqsadga muvofiq.

Sharh jarayonida ritm, sharhlovchi taqdim etayotgan nutq va jonli efirda uzatilayotgan bellashuv sinxronlikdir. Bu lingvistik jarayon temp dinamikasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ovoz oqimi va ritmida turli leksik birliklardan foydalanib, ularni muxlislarga yetkazishdagi izchillikdir. Chog‘ishtirilayotgan tillar sharh jarayonida fonetik mezonlar asosidagi ritm bellashuvining nutqiy ifodasi uchun xizmat qiladi va muxlislar diqqatini ushlab, tinglovchilarni o‘ziga tortadigan, o‘yinning hayajoni, qiymati, bosimini his qilish imkonini beruvchi ohangdor voqelik yaratadi. Agarda voqelik va nutq o‘rtasida uzilish yoki nomutanosiblik bo‘lsa, sharh ritmi yo‘qoladi. Qo‘shimcha qilish lozimki, o‘yinning qiymati, asosan, sharh ritmini belgilab beradi va uni vaqt bilan o‘lchash mumkin.



4-rasm. Chog‘ishtirilayotgan tillarda ritmik dinamikaning tafovuti

Tahlillar natijasida sharhlovchi ritmi doim o‘yinning borishiga qarab kuchayishi yoki pasayishi kuzatilgan. Agar o‘yin tezligi oshsa, sinxron ravishda ritm ko‘tariladi, bu sharhlovchining qisqa vaqt oralig‘ida ko‘proq leksik birlikni ifodalashi bilan xoslanadi. Aks holda, ozroq so‘zga ko‘proq vaqt ketadi. Tempning mazkur stilistik jarayonini ikki tillar kesimida ham kuzatish mumkin.

Tilshunoslik sohasida leksik mezonlar asosida yuzaga keluvchi lingvostilistik vositalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tahlil qilishdan avval ularni jadval asosida o‘zaro munosabatiga ko‘ra qanday tamoyillar asosida o‘rganilishini tasniflash maqsadga muvofiq (4- jadval).

Sharh jarayonida qo‘llanuvchi birliklarni lug‘at va kontekstual mantiqiy ma‘no o‘rtasida o‘zaro bog‘liqligi bir nechta lingvistik ifodalarda o‘z aksini topadi, lisoniy

bog'liqlik, lisoniy munosabat yoki ramziy ifoda munosabati, aksincha, qarama-qarshiligi shular jumlasidandir. Ushbu jarayonlar *metafora*, *metonimiya* va *ironiya* (kinoya)lardir. Odatda sport sharhlovchilarining nutqida metafora, metonimiya va kinoya ko'p uchraydi. Ushbu stilistik vositalar sharhlovchi nutqini yanada qiziqarli va tomoshabop qilish uchun tez-tez ishlatiladi. Nazariy va amaliy jihatdan sharhlarda qo'llanish va paydo bo'lish jihatiga e'tibor qaratilib, ularning lingvistik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

4-jadval

Leksik ekspressiv stilistik vositalar

LEKSIK EKSPRESSIV STILISTIK VOSITALAR				
lug'at va matniy ifoda munosabati	birlamchi va derivativ ifoda munosabati	mantiqiy va emotiv ifoda munosabati	xususiyat va voqelik munosabati	turg'un ifodalarni qo'llash tamoyili
metafora; metonimiya; kinoya....	polisemiya; zevgma...	his-hayajon so'zlar; epitet; oksimoron	o'xshatish; evfemizm; giperbola; perifraz	klishe; maqol; epigramma

Zevgma – **zeugma** tilshunoslikda tadqiq etiluvchi kichik stilistik jarayon hisoblanib, nutq jarayonida, bir so'zning turli ma'nolarda qo'llanilgan boshqa ikki so'zga bog'lanishi bilan xoslanadi. Afsuski, o'zbek tilida sharhlanuvchi sport turlari kam bo'lganligi bois juda kam uchraydi. Masalan, *Ha bilmadim, mana shu paytda uchrashuvni ikki-yu ikki bo'lishi va mana bu o'yinchini maydonda cho'zilib yotishi ko'pchilikka yoqmayapti* (Z.Mustafoev. O'zbekiston 3-2 Quvayt. 82 min.17.08.2005). Ushbu misolda *uchrashuvning 2-2 hisobi* va *o'yinchining cho'zilib yotishi* bir-biri bilan umuman aloqador emas, biroq nutqda zevgma stilistik vositasi qo'llanishi natijasida **muxlislarga yoqmayapti** fe'liga bog'lanib kelyapti. Demak, ko'rinib turibdiki, zevgmalar sport sharhlari dalili uchun qo'llanadi.

Ingliz tili sharhlarida ham zevgmalar nafaol, biroq dalil uchun topiladi. Masalan, *he stole both the ball and the show* (B.Costas? American football) – tarj.: *U to'pni ham, tomoshani ham o'g'irladi. The ball – to'p va the show – tomosha* o'rtasida aloqadorlik mavjud emas, *stole – o'g'irladi* fe'liga bog'lanib kelgan.

Giperbola – narsa, hodisa, jarayonlarning belgi-xususiyatini, holatini o'ta bo'rttirib tasvirlash. Bu jarayonda sharhlovchi voqealarni bo'rttirish orqali tomoshabinda hayajonni yaratadi va hissiyotlarni kuchaytiradi. O'zbek tili misolida, **a) tezlikda Gnabri o'tib ketdi, 3-1, Bavariya himoyani yorib tashlayapti** (D.Fayziyev, Bars. 2-8 Bav., 27 min., 15.08.2020). Sharhlovchi Barselona himoyasi kuchsizligi va Bavariyaning hujumi kuchli ekanligini **giperbola** orqali taqdim etmoqda. Sport sharhlarida giperbola orqali voqelik yoki jarayon ifodalansa, tabiiy ravishda har qanday o'yin harorati ortadi; **b) Zarba va ajoyib gol! So'nggi daqiqalarda bo'lsa ham, maydonda tirik qolgan koreyalik futbolchining borligi bizni xursand qilyapti** (H.Xamidov, Koreya 1-2 Meksika, 90-min., JCh 2018). Ushbu misolda *maydonda tirik qolgan koreyalik futbolchi* – *mubolag'a* orqali taqdim etilmoqda. Chunki sport o'yinlarida hech kim o'lmaydi, ya'ni qolgan 10 o'yinchi nobud bo'ldi, degani emas, mazkur stilistik vosita qolgan o'yinchilarga nisbatan *ko'p harakat qilgan, taslim bo'lmagan* futbolchiga nisbatan qo'llangan.

Ingliz tili misolida: **a) he's on fire!** – tarj.: *u yonmoqda!* Bu ibora jumla ajoyib o'yin ko'rsatayotgan o'yinchini tasvirlash uchun ishlatiladi, lekin ular aslida kuchli

harakat orqali yonib ketmaydi; b) *He's the fastest man alive!* - tarj.: *U dunyodagi eng tez (yuguradigan) odam!* – Ta'riflanayotgan sportchi juda tez bo'lishi mumkin bo'lsa-da, aslida u dunyodagi eng tezkor odam bo'lishi dargumon, tomoshabinlarni jalb qilish maqsadida sharhlovchi giperbola orqali bo'rttirmoqda. c) *Midfielder stole the show against his old club* (The Sun, 2010) - tarj.: *Yarim himoyachi o'zining eski klubiga qarshi o'yinda barchaning e'tiborini o'g'irladi*. “Chiroyli o'yin bilan mahliyo etdi” ma'nosida qo'llangan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi “**O'zbek va ingliz tillarida sport sharhlarining pragmatik xususiyati**” deb nomlanadi va unda sport sharhining pragmatik potensialini shakllantiruvchi jihatlar, sharhni idrok etish faqatgina sharhlovchining tomoshabiniga ma'lum bir tasavvur uyg'otish uchun qilingan niyatigagina emas, balki tomoshabinning o'z tajribasiga tayangan holda o'yin sharhiga singdirilgan rang-barang axborotni qabul qila olish qobiliyatiga ham bog'liqligini hisobga olgan holda sport sharhlarida mavjud bo'lgan murakkabliklar tahlilga tortilgan.

Zamonaviy sport sohasiga doir sharhlarda bunga alohida e'tibor beriladi. Bu soha bilish, anglash yoki inson muloqotining aqliy jarayonlariga (kognitiv jarayonlar deb ham ataladi) qaratilgan bo'lib, sharh davomida tomoshabinlarga ma'noni yetkazish va kommunikativ maqsadlariga erishish uchun sharh jarayonida tildan qanday foydalanishini o'rganadi. Bu tildan foydalanishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va madaniy omillarni, shuningdek, tilni talqin qilish va ishlab chiqarish bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni tushunishni o'z ichiga oladi. Umumiy olganda, kognitiv pragmatika odamlarning turli kontekstlarda qanday samarali muloqot qilishini tushunish va muloqot ko'nikmalarini yaxshilash strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhimdir. Misol uchun, *this is business, this is a business no nicety here, it's job to be done there, lets get on and do it* (Andy Gray) – tarj.: *bu vazifa, bu yerda hech qanday ko'ngilchanlik yo'q, u yerda bajarilishi lozim bo'lgan ish, kelinglar chiqamiz va buni bajaramiz*. Ushbu misolda sharhlovchi gapi quyidagicha kognitiv pragmatik tahlilga tortilgan:

1. *To'g'ridan-to'g'ri murojaat*: sharhlovchi keraksiz, yumshoq va yoqimli jumalarsiz to'g'ridan to'g'ri murojaat qilmoqda;

2. *Professionallik*: sharhlovchi asliy tilda “business” so'zidan foydalanish orqali samaradorlik va mahsuldorlik shaxsiy munosabatlardan ustun turuvchi professional nutqiy matnni taklif qilmoqda;

3. *Vazifa yo'nalishi*: sharhlovchi “*it's job to be done there* – bajarilishi kerak bo'lgan ish” iborasi orqali muloqotga yoki munosabatlarni o'rnatishga emas, balki vazifalarni bajarish va maqsadlarga erishish muhimligini ta'kidlaydi;

4. *Zudlik va chegaraviylik*: “*lets get on and do it* - kelinglar chiqamiz va buni bajaramiz” imperatividan foydalanish shoshilinch va tez harakat qilish zarurligi, vaqt chegaralanganligini anglatadi.

5. *Aniqlik*: sharhlovchi o'z fikrini nutq orqali hech qanday noaniqlik va chalkashliksiz yetkazish uchun aniq, lo'nda, ravon va ixcham tildan foydalanmoqda.

Sport sohasiga doir sharhlarda kognitiv pragmatika so'z va jumalarning so'zma-so'z talqinidan tashqari ma'noni yetkazish uchun tele va sport eshittirishlarida tildan qanday foydalanish va uning kognitiv ta'sirini o'rganishni taqdim etadi.

Kuzatuvlar jarayonida kognitiv pragmatik aspekt asosida inferensiya hodisasi ikki turga ajratib tavsiflangan (5-rasm). Buning asosiy sababi ingliz va o'zbekcha sharhlarning inferentiv jarayonda kuzatilishidir.



5-rasm. Inferensiyaning pragmatik tasnifi

Perklyuziya – lotincha *perclusio* soʻzidan olingan boʻlib, maʼno jihatidan “himoya qilish” ifodasiga ega nutq. Sharh jarayonlarida – bu mumkin boʻlgan xavf, tahdid haqida ogohlantirishni oʻz ichiga olgan xabar yoki nutq harakati. Masalan, *Toʻp bilan Vest Xemm futbolchilari Souchek yaxshi vaziyatda, pas beradi va (Lansini) aldadi va Ey, ey Lansini... Uyga borib bolalaringa nima deysan, Lansini?! Bunaqa imkoniyat ikkinchi marotaba boʻlyapti* (H.Xamidov. Luverpul 3-2 Vest Xemm, 69-daqiqa, 25.02.2020). Ushbu sharhda qulay vaziyatdan foydalana olmagan Vest Xem oʻyinchisiga yoʻnaltirilgan: *Uyga borib bolalaringa nima deysan, Lansini?! jumlasini perklyuziya sifatida tahlil qilingan.* Chunki sharhlovchi vaziyatni koʻkka sovurgan futbolchini muxlislarga qoʻshilib tanqid qilmadi, sharhlovchi katta xato qilgan oʻyinchini oʻzgacha tasvir bilan minglab tomoshabinlar salbiy fikridan himoya qilib, eʼtiborni boshqa tomonga tortyapti. Bu sharhdagi *perklyuziyaning pragmatik xususiyatidir.*

Konsolyatsiya – lotincha *consolation* soʻzidan olingan boʻlib, maʼno jihatidan “tasalli”, yaʼni *tasalli beruvchi, dalda beruvchi mazmundagi bayon* hisoblanadi. Pragmatik konsolyatsiya oʻzbek sharhlovchilari sharhlarida koʻp kuzatiladi. Masalan, *Anchelottini tushundingiz-a? (harakatlari bilan) Muhimi “tepti-yu” dedi. Shunaqa tepib tursa, boshqalar gol uradi* (H.Xamidov, Real Madrid 2-1 Napoli, 10-daqiqa, 20-daqiqa, 30.11.2023). Ushbu sharhda ***muhimi “tepti-yu” dedi*** jumlasini bilan darvoza tomonga xato tepgan harakatlarini tasalli ohangida ifodalamoqda. Pragmatik jihatdan ***bu oʻyini bilan tepa olmasligi ham mumkin edi*** maʼnosi ham bor.

Ingliz tilida ham pragmatik jihatdan konsolyatsiya hodisasi mavjud boʻlib, salbiy natijadan soʻng oʻyinчилarga tasalli ohangida yoki biror oʻyinchining salbiy natijaga loyiq emasligini koʻrsatadi. Masalan, Londonning Arsenal jamoasi oʻz darvozasidan gol oʻtkazib yuborgandan soʻng sharhlovchi Endi Grey (Andy Gray): *We talk about responsible defending, this is it could be easily have let him (striker) go, often defenders would have done but Gallas stuck with a run track to every inch of the way*³³ – ***tarj.: Biz masʼuliyatli mudofaa haqida gapirayapmiz, yaʼni uni (hujumchini) osongina qoʻyib yuborish mumkin edi, himoyachilar tez-tez shunday oʻtkazib yuborishar edi, ammo Gallas maydonning barchi qismida unga yopishib oldi.*** Ushbu misolda salbiy natija qayd etilganiga qaramasdan Uilyam Gallasning fidoyiligiga eʼtibor qaratilgan.

Misol uchun, sharhlovchi: *Although they didn’t win today, they gave it their all and showed great determination. They should be proud of their effort and look forward to the next game where they can come back stronger* (Martin Teylor, Real Madrid 3-1

³³Abdulmajeed R.K., Abdulmajeed A.T. The Pragmatics of Amusement in Selected British Football Commentaries//International Journal of English Linguistics; Vol. 9, No. 1; 2019 ISSN 1923-869X E-ISSN. – 1923-8703 Published by Canadian Center of Science and Education. – 473 p.

Liverpul, + 90-daqiqa, 16.03.2023) – **tarj.:** *Garchi ular bugun g'alaba qozona olmagan bo'lsalar ham, bor kuchlarini berishdi va katta iroda ko'rsatishdi. Ular o'zlarining sa'y-harakatlari bilan faxrlanishlari va kuchliroq qaytishlari mumkin bo'lgan keyingi o'yinni kutishlari kerak.* Ushbu turdagi sharh tili mag'lubiyat zarbasini yumshatishga yordam beradi, muxlislar va tomoshabinlarni kelajakdagi muvaffaqiyatga umid qilishga undaydi.

XULOSA

1. Dunyo sport matbuoti, televideniyesi va sport ko'rsatuvlarining taqdimoti jarayonida sport sohasi tabiati va xususiyatlarini aks ettiruvchi leksik birliklar turli lingvistik mezonlar asosida qo'llanadi, ular til va nutq sathida tabiiy va sun'iy, ichki va tashqi omillar ta'sirida rivojlanadi. Sport sohasidagi leksik birliklarning rivojlanishi zamon va makon bilan uzviy bog'liq hodisa ekan, sport sharhlari leksikasini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilishda quyidagi yondashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: a) leksik birliklarning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tadrijiy ketma-ketlik asosida tadqiq etish, b) leksik birlik semantikasiga fonetik ta'sirni tahlil qilish (analiz), c) struktur shakllanishi, d) milliy-madaniy va qiyosiy-tarixiy xususiyatlarini tahlil qilish iborat.

2. Zamonaviy sport sharhlarini xoslovchi leksik birliklar (termin, atama yoki neologizm) nominatsiya jarayoniga duch keladi. Nominatsiya sharh leksikasini nomlashda bir qator vaziyatlarda yaratiladi: 1) nom oluvchi birlik ilm-fan kashfiyoti bilan bog'liq holda (denotativ jihatdan) ilk nomga ega bo'lgan jarayonda; 2) sharhlovchining avvalgi bilimlari, vaziyatni to'g'ri baholashi, so'z boyligi va stilistik topqirligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayonda vujudga keldi. Mazkur jarayonda yangi atamalar lingvistik jihatdan til strukturasi qanday qo'shilishi, leksik birliklarning semantik va morfologik belgilari orqali yoritiladi.

3. Sharhlovchi o'yinning konseptual olam manzarasini ko'rsatishda o'yin afishasi va unga berilgan nom ahamiyati yuqori bo'lgani sababli u butun bellashuvni matniy ifodalash jarayonida murakkab mazmuniy munosabat yaratish kerak. Shunday ekan, bellashuv anonsi uning mazmuniy va estetik tarkibining muhim elementiga aylanadi hamda muayyan kompleks kognitiv struktura, lingvistik modelni tashkil etadi. O'yinning nomlanishi, mazmunan, quyidagi lingvistik belgilarga ega: a) implitsitlik; b) stilistik markerlanganlik; v) ramziylik; g) konseptual ahamiyatlilik.

4. Sport sharhlarida ritm tilning fonetik va sintaktik tuzilishini belgilaydi, har bir tilning o'ziga xos ritmik strukturasi mavjud va mazkur struktura asosida ovoz balandligi, tezligi va ritmik yo'nalishlari, muloqotda hissiyotlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Tomoshabin va sharhlovch o'rtasida muloqotning hissiy ta'sirini kuchaytiruvchi stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Tilni his qilish, o'rganish va ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qolishda yordam beradi.

5. Sharh jarayonida ikki tilning qofiyalanish modellari turlicha ekanligi kuzatildi. Jumladan, o'zbek tilida raviy lingvistik qofiya bo'lib, u so'z o'zagi, yasama so'zlarda negiz oxiridagi undosh, cho'ziq unli, ba'zan esa qisqa unlilarning aynan takrorlanishi tufayli yuzaga keladi. Vazniy shakliga ko'ra raviy gap oxirida keladi. Tipologik jihatdan o'zbek tilining morfologik strukturasi SOV modeliga mansub bo'lgani bois gap oxiri kesim yoki fe'lga tegishli. Shu bois yagona gap tarkibida ikki kesim qo'shma gapni hosil qilishi o'zbek tili sodda gaplari tarkibida qofiya yasalishi

murakab ekanligidan dalolatdir. Aksincha, ingliz tili SVO modeliga mansub bo'lgani bois bu til sharhlarida raviy ikkinchi darajali bo'lak bo'lishi ham mumkin. Sharhda qofiyaning vujudga kelishi faolroqdir. O'zbek tilida raviyning (qofiyaning) gap oxirida joylashishi va ingliz tilida raviyning ikkinchi darajali bo'lak sifatida paydo bo'lishi ikki tildagi sharhning lingvistik farqlarini ko'rsatadi.

6. Sharhlovchi ma'lum bir milliy borliq tasvirini individual tajribasidan kelib chiqib qurilgan va til birliklari vositasida verballashtirilgan jarayonda ifodalaydi. Uning fikrlari va mushohadalari faqat o'zigagina xos shaxsiy mikromatn bo'lib, murakkab kommunikativ-kognitiv jarayonda namoyon bo'ladi. Shaxsiy mikromatnning lingvistik taqdimoti uning uslubini belgilaydi. Shunday ekan, sharh sharhlovchining til shaxsiyatidir.

7. Sharhlovchi o'z nutqida qo'llovchi leksik birliklar sport sharhlarida quyidagi lingvistik belgilar bilan ajralib turadi: a) struktur va semantik tugal, nisbiy mazmuniy mustaqil va funksional mantiqiylik; b) sharhlovchining bevosita tomoshabinga murojaati deb qaraluvchi maqsadli yo'naltirilganlik; c) sharh jarayoni stilistik vositalar konvergentsiyasida namoyon bo'luvchi stilistik bo'yoqdorlik; d) sharhlovchi yetkazmoqchi bo'lgan xabarni ilgari surish vositasi; e) narrativ ifodaning kognitiv tizimlilikini ta'minlash.

8. Nutq – sarhlovchi va voqelik, jarayon va personajni o'zaro bog'lab turuvchi, biri ikkinchisining ta'siriga asoslangan murakkab til hodisasi bo'lib, bir tomondan, ifodalanuvchining konseptual ma'lumotini ochib berishga, ikkinchi tomondan esa ifodalovchining modalligi va intensionalligini ochib berishga xizmat qiluvchi tabiiy lisoniy qurilma. U sharhlovchi tajribasi (shaffofligi, jozibasini), kognitiv imkoniyati (har bir planda tizimli axborotning mavjudligi)ga ko'ra turlicha namoyon bo'ladi.

9. Sport sharhlarining pragmatik potensiali, asosan, implikaturalar va presuppozitsiyalar vositasida amalga oshiriluvchi intensiya, shuningdek, sharhlovchi hamda tomoshabin (adresant – adresat) munosabatlari bilan aniqlanadi. Sharhning pragmatik jihati, odatda, tomoshabinga bo'lgan ta'sirni faollashtiruvchi sharhlovchi pragmatik ko'rsatmalarining obyektiv-subyektiv baholaridan iboratdir. Sharh tahlili jarayonida ko'rsatmalarining ma'lumotlarini kodsizlashtirish tomoshabin tomonidan adekvat idrok etilishiga ko'maklashadi. Qolaversa, pragmatik jihatdan ma'nolarni qayta talqin etishda sharhlovchi intensiyasini pragmatik kontekst ishtirokida kodsizlashtirish muhim rol o'ynaydi. Kodsizlashtirish jayonida sharhlovchi perklyuziya va konsolyatsiya lingvistik hodisasi orqali taqdim etadi. Mazkur jarayonlar: 1) *Perklyuziya* – sharh orqali tomoshabinlarda vaziyat haqida ogohlantiruvchi yoki ehtiyotkorlik tasavvurini uyg'otadi; 2) *Konsolyatsiya* – tomoshabinlar va hatto sportchilar yoki jamoalar mag'lubiyatdan keyin motivatsiyani saqlashga yordam beruvchi lingvistik hodisa.

10. Sport sharhlarida pragmatika sharh jarayonida ifodalangan nutqiy xulosalarga e'tibor qaratadi. Pragmatik xulosa esa kommunikativ vaziyatdan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi. Bunda kommunikativ vaziyat adresant va adresat o'rtasida emas, balki o'yin, adresant va adresat o'rtasidagi nutqiy ifodaviylikdir. Pragmatik yondashuv nutqiy matnning sintaktik va semantik chegarasidan chetga chiqib, sharh davomida sharhlovchi taqdim etgan fikr mazmun jihatdan tomoshabinning fikriga qanchalik mos kelganligini xoslaydi. Pragmatikada axborot oqimini boshqarish aloqada axborotni tashkil qilish va taqdim etish usullarini

anglatadi. Sharh jarayonida sharhlovchi ifodalayotgan axborotni nazorat qilish jarayonida *nutq belgilari*, *intonatsiya* kabi lingvistik hodisalar mavjud bo'lsa-da, *kirish so'zlarning* o'rni muhimdir. Buning boisi mazkur birliklar nutqning turli qismlari o'rtasida bog'lovchilik vazifasini bajarish uchun xizmat qiladi va ular so'z yoki ibora ko'rinishida qo'llanadi. Ya'ni bir gapga qaratilgan e'tibor nuqtasini boshqa biriga o'tishni ifodalovchi lisoniy ko'rsatkichlardir. Sport sharhlovchilar nutqida bayon qilinayotgan fikrga munosabati, fikrning umumiy bahosi, kimga qarashli ekanligi yoki oldingi fikr bilan aloqasini bildiradi. Sharhning pragmatik shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: pragmatik omillar (sharhlovchi maqsadi (g'oyasi) va ijobiy munosabatni saqlab qolishni bilish), ijtimoiy-madaniy (o'zga madaniyat bilan bog'liq leksik birliklarni yetkazib berishni bilish), g'oyaviy (ideologik) (sportga doir ma'lum avlod, davr va shu sport turi yaralgan mamlakatning jamoaviy-g'oyaviy tamoyillari ta'siri), kognitiv (jamoatchilik ongida aks etgan jamoaviy bilimlar va xalqning mentaliteti hamda ularning shaxsiy tajriba prizmasi ichida individual talqin etilishi), lingvomadaniy (madaniyatni aks ettiruvchi birlik va maxsus lingvistik voqeliklar), lingvokreativ (sharh davomida stilistik usullar va til o'yini usullari, til normalaridan chetga chiqmasdan taqdim etish).

11. O'tkazilgan tadqiqot davomida sport sharhlari leksikasi tahlilining to'rt bosqichli metodikasi ishlab chiqildi:

1-bosqich – sharh jarayoniga kirishishdan avvalgi, dastlabki tahlil: sport turi (jamoaviy yoki individual) va yo'nalishini (yengil atletika, og'ir atletika, to'p bilan o'ynaluvchi sport, aqliy, jangovar va h.) aniqlash;

2-bosqich – lingvistik tahlil: sharh leksikasining leksik-grammatik va stilistik-funksional muammolarini aniqlash;

3-bosqich – konseptual (talqiniy) tahlil, sport sharhlarining stilistik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashtirish, shuningdek, ularning sharh jarayonida konseptual yaxlitligini qayta taqdim etishda ahamiyatini umumiy baholash;

4-bosqich – sharhlovchi nutqining zaif, o'rta va kuchli lisoniy xoslanishlarini hisobga olgan holda sharhni rivojlantiruvchi, barqaror saqlab turuvchi lingvistik tavsiyalar.

12. Sharhga doir leksik birliklar ishtirok etgan matnlar nasriy va nazmiy matnlardan farqi quyidagicha farqlanadi: ular til imkoniyatlaridan kelib chiqib, axborotni *jonlilik* (hech qanday tahrirsiz, to'g'ridan to'g'ri), *tasviriylilik* (bo'lib o'tayotgan voqelikning ifodalanishi), *erkinlik* (hech qanday nazm va nasr qoliplariga tushmaslik), *ijodkorlik* (sharh jarayonida voqelik bilan bog'liq she'riy parchalar, maqol, matal va sitatalardan ham foydalanish mumkin), *neytrallik* (u yoki bu jamoaga yon bosmay, sharh muvozanatini saqlash) kabi xususiyatlar orqali taqdim etiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10
ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
AT NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN**

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

SARIMSOKOV KHURSHID ABDIMALIKOVICH

**LINGUISTIC FEATURES OF THE LEXICON OF SPORTS COMMENTARY
IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

**10.00.06 – Comparative Study of Literature, Contrastive Linguistics
and Translation Studies**

**ABSTRACT OF THE DISSERTATION
of doctor of philological sciences (DSc)**

Tashkent – 2024

The theme of the dissertation of Doctor of Science (DSc) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Republic of Uzbekistan under number B2023.2.DSc/Fil587.

The doctoral dissertation has been carried out at the Namangan state university.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (abstract)) on the Scientific Council website (www.nuu.uz) and on the website "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific consultant: **Siddikova Iroda Abduzukhurovna**
Doctor of Philological Sciences, professor

Official opponents: **Safarov Shaxriyor Safarovich**
Doctor of Philological Sciences, professor

Samigova Xushnuda Batirovna
Doctor of Philological Sciences, professor

Muxamedova Saodat Xudoyberdiyevna
Doctor of Philological Sciences, professor

Leading organization: **Bukhara State University**

The defense will take place on «13» December 2024 at 10:00 at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 at National University of Uzbekistan. (Address: 100174, Tashkent city, Farabi street, 400. Phone: (+99871) 246-08-62; Fax: (+99871) 227-10-59. E-mail: nauka@nuu.uz).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center at National University of Uzbekistan (registered under the number 48). (Address: 100174, Tashkent city, Farabi street, 400., Faculty of Foreign Philology (3rd floor, room - 311. Phone: (+99871) 246-08-62)

The abstract of the dissertation was distributed on «29» November 2024 y.
(Registry record No. 13 dated «29» November 2024.)



R.Kh. Shirinova

Vice-Chairman of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

Sh.O. Nazirova

Scientific Secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Candidate of Philological Sciences.

S.E. Kamilova

Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of the DSc dissertation)

The relevance and necessity of the Dissertation topic. In contemporary global linguistics, which recognizes language as a multifaceted social phenomenon, several distinct approaches have emerged that focus on the practical dimensions of language use. These approaches reflect divergent perspectives on the historical and current contexts of language users, including their worldview, socio-cultural status, ethical and moral frameworks, ethnic and religious values, lifestyle, as well as their trajectories of progress and decline. Given these considerations, it is imperative to acknowledge the significance of interpreting specific linguistic phenomena, events, or subjects in linguistic research. Such interpretation necessitates an interdisciplinary approach that integrates the interrelations between language and culture, language and communication, as well as language and cognition. Within this framework, the analysis of sports commentary, particularly in terms of its linguocultural, cognitive, and lexicographical dimensions, assumes critical practical importance.

The academic investigation of sports-related commentary, particularly its linguistic aspects, became an object of scholarly focus in the latter half of the previous century, and continues to be an area of ongoing research. The examination of the sociopragmatic, semantic, and lexicographical structures of language in this domain provides a significant contribution to resolving pertinent linguistic issues. Specifically, the study of sports terminology, which functions as a global medium of communication, from both a linguistic and lexicographical perspective, has gained heightened relevance in the current context, where the exploration of language and communication structures has assumed increased urgency and complexity.

In recent years, the advancement of social issues within the national context, particularly the promotion and development of sports, has been prioritized as a key element of state policy. The dissemination of sports content through mass media, including radio and television, has been recognized as a vital component of national progress. Historically, sports programming occupied a peripheral role in television broadcasting during the latter half of the 20th century; however, in the post-independence period, there has been a significant expansion of the sports sector, which in turn has led to the evolution of sports journalism. Of particular note is the incorporation of specific terms from the national sport of **kurash** into global sports commentaries, where terms such as “chala,” “yonbosh,” and “halol” are now used in their original Uzbek forms. This linguistic development is seen as a positive outcome for the promotion of the Uzbek language in the international arena. As emphasized in scholarly discourse, “the recognition of national identity, the exploration of our nation's ancient and rich history, and the enhancement of research in this area are critical”³⁴. Therefore, the examination of sports matches, games, and competitions through the lens of commentary, with a focus on linguocultural, pragmatic, and lexicographical aspects, as well as their sociolinguistic significance, underscores the relevance and necessity of this dissertation topic, particularly since these issues have not yet been the

³⁴Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги «Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошавиради» мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

subject of specialized monographic inquiry. Furthermore, one of the core priorities of state policy in the field of physical education and sports is the “development and promotion of national sports, increasing their international visibility, and implementing systematic measures to integrate them into the programs of the Asian and Olympic Games”³⁵. The culture of a nation is inherently expressed through its language, and it is through media commentary that this cultural expression is conveyed to a broader audience. As such, the linguistic analysis of sports commentary offers profound insights into the intersection of language, culture, and communication in both national and international contexts.

In accordance with the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 484, dated November 4, 2003, titled “On Measures to Further Strengthen the Promotion of Mass Sports,” the “Sport” television channel was officially established on January 1, 2004, based on the foundation of the 4th International Channel of the National Television and Radio Company of Uzbekistan. Furthermore, several significant legislative acts and presidential decrees have played a pivotal role in enhancing the prestige of the Uzbek language and fostering the development of sports journalism in the country. Among these key legislative measures are the Presidential Decree No. PF-4797, issued on May 13, 2016, “On the Establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature Named After Alisher Navoi”; the Presidential Decree No. PF-5850, dated October 21, 2019, “On Fundamental Measures to Radically Enhance the Status and Role of the Uzbek Language as the State Language”; and the Resolution of the Cabinet of Ministers No. PQ-4479, dated October 4, 2019, “On the Commemoration of the 30th Anniversary of the Adoption of the Law 'On the State Language of the Republic of Uzbekistan.’” Additionally, the Cabinet of Ministers’ Resolution No. 989, dated December 12, 2019, “On the Approval of the Regulation on the Department for the Development of the State Language,” and Resolution No. 40, issued on January 29, 2020, “On Measures to Organize the Activities of the Terminology Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan,” along with the Presidential Decree No. PF-60, dated January 28, 2022, “On Measures to Support Mass Media and Promote the Development of Journalism,” constitute further foundational legal instruments shaping this domain.

The scientific findings of this dissertation are poised to contribute substantively to the realization of the objectives enshrined in these normative and legal frameworks, particularly in supporting the advancement of mass media and the professionalization of journalism. Through its focus on the linguocultural, sociopragmatic, and lexicographical analysis of sports commentary, this study aims to address critical gaps in the academic treatment of sports language and its impact on the broader sociolinguistic landscape.

The relevance of the research to the priority areas of the development of science and technology in the Republic of Uzbekistan. The research corresponds to the priority direction of the development of science and technology in the Republic of

³⁵Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–5924-сонли фармони.

Uzbekistan, specifically to the area of “The social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information-based society and democratic state, and the development of an innovative economy”.

The review of foreign scientific research on the dissertation topic³⁶.

Research dedicated to the examination of sports commentary and its associated linguistic issues is actively conducted at leading academic institutions and research centers globally. This includes prominent universities such as the University of Pennsylvania, the University of Nebraska, East Tennessee State University, and the University of Nevada in the United States; the Oxford University Language Centre in England; the Australian National University; the University of Bordeaux in France; Baku State University in Azerbaijan; Poznan University in Poland; Lanzhou University in China; Ain Shams University in Egypt; the University of Baghdad in Iraq; as well as Moscow State University and Bashkortostan State University in the Russian Federation, and Kazakh National University in Kazakhstan. Notably, research is also undertaken at the Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature and the Institute of Uzbek Language, Literature, and Folklore at the Academy of Sciences of Uzbekistan.

The development and evolution of sports commentary encompass the interaction of lexical units from both foreign and national languages, which transpires through several stages: the integration of lexical units from the donor language, their subsequent formation, and eventual obsolescence. This process of development, characterized as a specialized language for specific purposes, reflects distinct attributes of the cultural evolution of athletes within the domain. In the field of global lexicology, studies have investigated the linguistic and cultural interconnections of specialized lexical units employed in sports commentary, revealing external, internal, and linguistic factors that contribute to the mutual reinforcement of language and culture.

Despite being a nascent area of inquiry, the cognitive-pragmatic and lexicographic dimensions of the units found within sports commentary have been extensively researched within the field of global linguistics. Noteworthy contributions include the diachronic analysis of commentary by A. Cameron, which provides insights into its historical development³⁷. The linguocultural aspects of commentary formation have been elucidated in the scholarly works of T. Bruk³⁸. Furthermore, the lexicographic characteristics inherent to sports commentary have been meticulously examined in the research of M. Mesch³⁹, while M. Baltser-Sayber has focused on the functional-stylistic attributes of commentary⁴⁰. The linguistic and pragmatic challenges associated with

³⁶Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи www.utexas.edu, www.berkeley.edu, www.northwestern.edu, www.bu.edu, adwww.ecu.edu.au, unice.fr/en, www.u-bordeaux.com, www.lang.ox.ac.uk, english.pku.edu.cn, www.sophia.ac.jp/eng, www.u-tokyo.ac.jp/en, bsu.edu.az, www.msu.ru, www.bashedu.ru, www.kaznu.kz, www.navoiy-uni.uz ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

³⁷Cameron A., *Greek Mythography in the Roman World*. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – 3 p.

³⁸Brook T. *The Confusions of Pleasure: Commerce and Culture in Ming China*. – Berkeley: University of California Press, 1999. – 21 p.; ISBN 0-520-22154-0.

³⁹Mesch M. *Lexicological view of the language of the sport commentaries*. – České Budějovice, 2014. – 144 p.

⁴⁰Balzer-Siber M. *Functional and Stylistic Features of Sports Announcer Talk: A Discourse Analysis of the Register of Major League Soccer Television Broadcasts*. <https://dc.etsu.edu/etd>, English Language and Literature Commons.

commentary have also been explored by researchers Kamol and Tolib Abdulmajid⁴¹. Additionally, the connotative dimensions of the semantics of nominative units have been rigorously analyzed by V. N. Teliya⁴², alongside an examination of the evaluative components of lexical meaning by S. S. Xidekel and G. G. Koshel⁴³. Collectively, these studies contribute to a deeper understanding of the intricate interplay between cognitive processes and linguistic structures within the realm of sports commentary.

